Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317807

talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me’yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me’yorlarga mos keltirish maqsadida o‘tkaziladigan ta’sirni anglatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o‘zini o‘zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me’yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi. Jamoatchilik nazoratini jamiyatni raqamlashtirish asosida tashkil etish natijasida hududlarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ko‘lamini kengaytirish, jamiyat a’zolarida ma’suliyat hissini oshirish va hududlar rahbarlarini mazkur hududlar aholisi bilan keng qamrovli muloqotini tashkil etishga asosiy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/559/1026
2.https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/download/16450/17162
3. https://lex.uz/mact/-3302438
4. https://soff.uz/product
5. https://adolat.uz/news/raqamlashtirish-rivozhlanishning-muhim-omili
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PV-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-5841063
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.03.2020-yildagi PQ-4642-sonli “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, https://lex.uz/ru/docs/4767514

RAQAMLI VALYUTALARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI VA AHAMIYATI

Suyarov ZokirjonErgashevich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik,ijtimoiy-gumanitar vaaniq fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Bahriddinov Ulugbek Bahridin o’g’li

Published: 24.05.2025

Cite this article: Suyarov Zokirjon Ergashevich, Bahriddinov Ulugbek Bahridin o’g’li (2025). Raqamli valyutalarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri va ahamiyati. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317807

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

TDIU Moliya va moliyaviy texnologiyalar
51/24 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalarining moliya tizimiga ta’sirini tahlil qiladi. Unda raqamli valyutalarning mohiyati, blokcheyn texnologiyasining xususiyatlari va afzalliklari, shuningdek, ushbu texnologiyalarning bank xizmatlari, to‘lov tizimlari va moliyaviy regulyatsiyalarga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani muhokama qilinadi. Kelajakda raqamli iqtisodiyot rivojida markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC), DeFi tizimlari va boshqa texnologik yangiliklarning o‘rni batafsil yoritilgan. Mazkur maqola raqamli texnologiyalar va moliya sohasidagi yangi imkoniyatlarni o‘rganishga qiziqqan o‘quvchilar uchun foydali ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Raqamli valyutalar, blokcheyn texnologiyasi, moliya tizimi, kriptovalyutalar, smart-kontraktlar, raqamli iqtisodiyot

Global tranzaksiyalar bugungi kunda raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalari moliya tizimida yangi davrni boshlab bermoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat to‘lov tizimlari va moliya institutlarini o‘zgartirmoqda, balki iqtisodiyotning turli sohalarida inqilobiy yangiliklarni keltirib chiqarmoqda. Maqolamda raqamli valyutalar va blokcheynning mohiyati, moliya tizimiga ta’siri va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida batafsil fikrimni yuritaman.

Raqamli valyutalar – bu faqat elektron shaklda mavjud bo‘lgan to‘lov vositalari. Ular asosan markazlashmagan (decentralized) bo‘lib, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan. Eng mashhur raqamli valyutalardan biri – Bitcoin, 2009-yilda Satoshi Nakamoto tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, Ethereum, Ripple va boshqa kriptovalyutalar ham ommalashgan. Raqamli valyutalarning asosiy xususiyatlari:

1. Markazlashmagan boshqaruv: Raqamli valyutalar hukumat yoki markaziy bank tomonidan boshqarilmaydi.
2. Tezkor va global tranzaksiyalar: Pul o‘tkazmalari chegarasiz va qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi.
3. Xavfsizlik: Kriptografik algoritmlar tufayli tranzaksiyalarni soxtalashtirish deyarli imkonsiz.
4. Past xarajatlar: An’anaviy bank tizimlaridan farqli ravishda tranzaksiya komissiyalari pastroq.

Blokcheyn texnologiyasining mohiyati va afzalliklari

Blokcheyn – bu raqamli ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va o‘zgarmasligini ta’minlash uchun yaratilgan texnologiya. U tranzaksiyalarni bir nechta tugunlar

(nodelar) orqali tasdiqlash tizimiga asoslangan. Asosiy xususiyati – ma’lumotlar zanjiri bir marta yozilganidan keyin o‘zgartirib bo‘lmaydi. Blokcheyn va raqamli valyutalarning moliya tizimiga ta’siri .Blokcheyn va raqamli valyutalar moliya tizimining turli jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda:

Bank xizmatlarini optimallashtirish: Blokcheyn texnologiyasi banklarning ish jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi. Masalan, xalqaro pul o‘tkazmalari blokcheyn asosida an’anaviy tizimlarga qaraganda arzonroq va tezroq amalga oshiriladi.

Markazlashmagan moliya tizimining jamiyatga beradigan afzalliklari

DeFi tizimlari oraliq vositachilarni yo‘q qilib, moliyaviy xizmatlarni bevosita foydalanuvchilarga taqdim etadi. Bu kredit olish, omonat qo‘yish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni oddiyroq qiladi.Raqamli valyutani boshqarish qulay va ishonchli bo’lib jamiyatda mavjud moliyaviy ehtiyojlarni tez va qulay qondirishga xizmat qiladi .Raqamli valyutalarning keng tarqalishi moliyaviy regulyatsiyalarni yangilashni talab qilmoqda. Hukumatlar va moliyaviy tashkilotlar ushbu texnologiyalarni nazorat qilish uchun yangi qoidalarni ishlab chiqmoqda.

To‘lov tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari raqamli valyutalar orqali to‘lovlarni qabul qilish global savdoni soddalashtiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. Raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalari moliya tizimida inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Ularning keng ko‘lamda qo‘llanilishi moliya institutlarini raqamlashtirishga, jarayonlarni soddalashtirishga va moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu texnologiyalar yanada rivojlanib, global iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Shu sababli, raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalariga oid bilimlarni o‘zlashtirish hozirgi davrning dolzarb ehtiyojidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

2. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World. Penguin Random House.

3. Casey, M. J., & Vigna, P. (2018). The Truth Machine: The Blockchain and the Future of Everything. St. Martin’s Press.

4. International Monetary Fund (IMF). (2021). The Rise of Digital Money. IMF Report. https://www.imf.org (https://www.imf.org/)